



BARCHA ONALAR BILISHI KERAK : BOLALARDA KONYUKTIVIT!

Barchinoy Obidova*Abu Ali ibni Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti
Pediatriya fakulteti 2-bosqich talabasi*

Atrofdagi voqealarda 90%ini biz ko'zlar orqali qabul qilamiz. Lekin ba'zi vaqtlarda biz ko'z orqali zararli bakteriya yoki zamburug'larni ham qabul qilishimiz mumkin. Bunday vaqtida biz qanday yo'l tutishimiz va bu belgilar aynan yuqumli ko'z kasalliklari ekanligini bilish uchun ham bu borada bir qancha ma'lumotlarga ega bo'lishimiz kerak.

Aniqlanishicha, ko'rish organlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan 150 ga yaqin virus bor. Oftalmologlar so'nggi yillarda ko'proq virusli konyuktivitga duch kelishmoqda. Hozirgi kunda konyuktivitning ma'lum turi bilan kasallanmagan bolani uchratish qiyin. Ko'z kasalliklari juda xilma xildir va ko'pincha virusli ko'z kasalliklari bilan og'rigan kishilar oftalmologga murojaat qilishadi. Ko'p hollarda onalar doktorga bolalarining ko'zdagi qizarish va shilliq oqindi kabi bezovtalik bilan murojaat qilishadi.

Xo'sh, o'zi konyuktivit nima?

Bolalardagi konyuktivit - ko'zning shilliq qavatida yallig'lanish jarayonining mavjudligi bilan tavsiflanadigan holat ko'pincha virusli yoki allergik xususiyatga ega. Bolalardagi konyuktivit va kattalardagi shunga o'xshash muammo o'rtasidagi asosiy farq – asoratlarning yuqori xavfi hisoblanadi. Bolaning immun tizimi nomukammal, u doimo harakatda bo'ladi va har kuni minglab patogenlarga duch keladi. Bu yoshdagagi kasallik deyarli har doim tez rivojlanishi bilan tavsiflanadi, shuning uchun o'z vaqtida mutaxassislardan tibbiy yordam so'rash zarur bo'ladi.

Mutaxassislar kelib chiqishiga ko'ra kasallikning 3ta asosiy shaklini ko'rsatishadi: allergik konyuktivit, bakterial va virusli. Siz bu kasallikning har qanday ko'rinishida tibbiy chora tadbirlarni ko'rishingiz kerak. Chunki o'z o'zidan davolanish bolaning ko'rish o'tkirligiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin

Bolada bu ko'rinishlar qanday kelib chiqadi deyishingiz mumkin. Kasallikning bakterial shakli ko'p hollarda bolaga tug'ilish yo'lida onadan o'tishi mumkin. Virusli shakl maishiy aloqa va havo tomchi orqali yuqishi mumkin. Allergik shaklni esa hayvonlarning yunglari, uy changlari, dorilar, kosmetika tozalash vositalari orqali bola yuqtirib olishi mumkin.

BELGILARI:

- ko'zdagi og'riq
- yallig'langan ko'zdan oqindi



- yorqin nurga sezgirlikni oshishi
- ko'zda begona jism hissi
- ko'z qovoqlarining tez-tez miltillashi
- boshda og'riq

Chaqaloqlar tez-tez bezovta bo'lib yig'laydilar, ko'zlarini mushtlari bilan ishqalaydilar. Bakterial konyuktivitning klassik belgisi- ko'zdan yiringli oqimdir!

Ular uyqu paytida ko'z qovoqlarining yopishishini qo'zg'atadi va kun davomida ular qobiq shaklida kipriklarda quriydi. Xullas bolalardagi konyuktivit ko'z yoshlariga o'xshash ko'p miqdorda suyuq shaffof sekretsiyalar bilan tavsiflanadi.

Qanday davolash kerak?

Boladagi konyuktivit uchun birinchi yordam shifokorlar bilan tezda bog'lanishdir. Qancha erta harakat qilinsa , kurashish shuncha oson bo'ladi. Allergolog shifokor kasallik uchun zarur inyeksiyalar antibiotiklar va bir qancha ko'z tomchilarini tavsiya qiladi. Onaning vazifasi esa vaziyatni yengillashtirish uchun bola turadigan xonani soya qilish, yorqin nurdan saqlash , uning ko'zlarini steril sho'r suv , ramashka infuzioni va qaynatilgan suv bilan chayib turishi kerak bo'ladi. Va asosiysi bola ko'zlarini ishqalashiga yo'l qo'ymaslik kerak . Davolash usulining to'g'ri tanlanishi , tavsiyalarning aniq bajarilishi bilan to'liq tiklanish 7-14 kunda sodir bo'ladi.

Davolamasa nima bo'ladi?

Konyuktivitni davolash chorralari ko'rilmaganida bu holat asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin, jumladan:

- ko'zning boshqa qismlariga zarar yetishi
- quruq ko'z sindromi rivojlanishi
- chandiqlar
- ko'rish keskinligini pasayishi

Shifokor chaqaloqni tekshirib , tashxis qo'ymagunicha, xalq yoki rasmiy dori vositalardan foydalangan holda o'z o'zini davolash mumkin emas. Shunday ekan bolalarda kechadigan o'zgarishlardan doimo xabardor bo'lishimiz kerak. Bolalarimiz sog'ligiga befaroq bo'lmaylik!

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.<https://fingernal.ru/uz/disease/konyuktivit-u-detei---vidy-prichiny-simptomy-principy-lecheniya-chto-delat-pri/>
- 2.<https://www.savol-javob.com/bolalarda-virusli-konyuktivit/>
- 3.<https://savol-javoblar.com/kasalliklar/1315-bolalarda-virusli-konyuktivit.html>